

YUQORI SINIF O'QUVCHILARI EMOTSIONAL MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xalilova Maxbuba Nurullaevna
Xalqaro Nordik universiteti magistranti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.053>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilari emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'smirlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning psixologik xususiyatlar bir qator ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'smirlilik yoshi, jismoniy taraqqiyot, impulsiv istaklar, qat'iylik, o'zlikni anglash, xarakter, ijtimoiy hayot, kollektivizm.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ СТАРШКОЛНИКОВ

Халилова Махбуба Нуруллаевна
магистрантка Международного Нордик Университета.

Аннотация. В данной статье рассматриваются социально-психологические особенности эмоциональных отношений старшеклассников. Также на основе ряда научных источников были проанализированы психологические особенности социальных отношений подростков.

Ключевые слова: Подростковый возраст, физическое развитие, импульсивные желания, целеустремленность, самосознание, характер, социальная жизнь, коллективизм.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EMOTIONAL RELATIONSHIPS OF SENIOR STUDENTS

Khalilova Makhbuba Nurullaevna
master student of the International Nordic University

Abstract. This article discusses the socio-psychological features of emotional relationships of high school students. Also, the psychological characteristics of social relations among teenagers were analyzed based on a number of scientific sources.

Key words: Adolescence, physical development, impulsive desires, determination, self-awareness, character, social life, collectivism.

Kirish. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish dolzarblik kasb etmoqda. Ilm-fanni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909- son qarori qabul qilindi. Pedagogika va psixologiya oid bilimlarni egallash insonni o'ziga xos xususiyatlar haqidagi tasavvurlarni yaxlit shakllantirish, mustaqil fikrlash va shaxsiy xatti-harakatlari oqibatlarini oldindan sezish, mustaqil o'qish va o'z imkoniyatlarini aynan baholash, maqsadga erishish va hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etishning maqbul yo'llarini mustaqil topish bo'yicha pedagogik va psixologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Prezident Sh.M.Mirziyoev ham "Oldimizga yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va

boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi" [1;45] deya jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarning pedagogik-psixologik mohiyatini bo'lg'usi mutaxassislar tomonidan o'zlashtirilishiga ko'mak beruvchi ilmiy manbalarning ahamiyatini yana bir marotaba ta'kidlab o'tdi. Psixologiya asosan shaxs va uning individual xususiyatlarini o'rganadigan bo'lsa, uning emotsional munosabatlari ham psixologiyaning asosiy tayanch mavzusi hisoblanadi. Demak shaxsning emotsional munosabatlari mavzusini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish va o'qitish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili

MDH mamlakatlari miqyosida yuqori sinf o'quvchilari hisoblangan o'spirinlarning emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari doir tadqiqotlar A.G. Gretsov, Y.N. Vasileva, N.A. Bogoslovskaya, V.N. Nosulenko, I.V. Starikova L.S. Vigotskiy, L.I. Bojovich, M.I. Lisina, I.S. Kon, A.V. Mudrik, L.M. Fridman, I.Yu. Kulagina, N.D. Levitov, L.D. Stolyarenko ilmiy ishlarida keng urg'u berilgan va atroficha tadqiq etilgan [2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12].

Mamlakatimizning pedagog olimlaridan o'smir yoshdagi bolalarning emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga doir tadqiqotlarni T.R. Bekmirov, Z.T. Nishonova, G.K. Alimova, M. Radjabova, A.K. Shamshetova va boshqalar olib borganlar [13,14,15,16,17].

Xususan, T.R. Bekmirovning o'quv-uslubiy qo'llanmasida "Psixologiya va pedagogika" modulining asosiy mavzusi hisoblangan "Shaxsning emotsional irodaviy holatlari" mavzusini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mavzusida tayyorlangan. O'quv-uslubiy qo'llanmaning dastlabki boblarida psixologiya va pedagogika modulida shaxsning emotsional irodaviy holatlarining asosiy jihatlari va samarali o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kabi masalalar ilgari surilgan. O'quv-uslubiy qo'llanmaning kiyingi boblarida ta'lim jarayoniga joriy etilayotgan innovatsion ta'lim texnologiyalar, interfaol ta'lim metodlarining bir nechta turlaridan foydalanib mavzuni yoritish usullari ko'rsatilgan. Mavzuga mos taqdimot, glossariylar ilovalar va fan sillabusi keltirilgan [13]. Z.T. Nishonova boshchiligidagi mualliflar jamoasining "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" nomli darsligida rivojlanish va pedagogik psixologiyaning predmeti, metodlari, bo'limlari, ta'lim, tarbiya va o'qituvchi psixologiyasi haqida so'z yuritiladi. Unda chaqaloqlik davridan qarilik davrigacha shaxsning psixologik rivojlanish xususiyatlari aks ettirilgan. Ta'lim psixologiyasiga bag'ishlangan bobda o'quv faoliyatining psixologik mohiyati, bilimlarni o'zlashtirishning psixologik komponentlari, ta'limning noan'anaviy usullari, mustaqil tafakkurni rivojlantirish, ta'lim jarayonini boshqarish haqida bayon etiladi. Tarbiya psixologiyasi bobida tarbiyaning samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar, o'qituvchi psixologiyasi bobida, pedagogik qobiliyatlar, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritiladi [14].

Yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqib biz o'zimizning maqolamizda yuqori sinf o'quvchilari emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy tadqiqotning sifati va natijasi izlanishda qo'llaniladigan vosita va usullarga bog'liq. Shu bois, fanda tadqiqot vositalari, texnologiyasi va usullariga e'tibor har doim katta bo'lgan. O'rganilayotgan ob'ekt qanchalik murakkab bo'lsa, uning xossalari va qonuniyatlarini ochish uchun qanday vosita, asos yoki usulni ishlatish masalasi dastlab hal qilinishi kerak bo'lgan metodologik muammoga aylanadi. Mazkur muammo xususida mulohaza yuritish metodologiyani, ya'ni, metodologik bilim darajasini (qatlamini) tashkil qiladi. Tadqiqotimiz

davomida ilmiy bilishning kuzatish, so'rovnomalar, analiz va sintez, mantiqiylik usullaridan foydalangan holda mavzuni yoritishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar

Shaxsning axloqiy jihatdan intensiv tarkib topishi, xatti-harakatlarining axloqiy etnik normalarini o'zlashtirish o'smirlik yoshining muhim psixologik karakteristikalaridandir.

O'smirlik yoshida faqat jismoniy taraqqiyot yuzaga kelmay, balki bolaning shaxsi ham sezilarli rivojlanadi. Bola shaxsining rivojlanishi tevarak-atrofdagi voqelikning ta'siri ortida maktabdagi, ta'lim tarbiya jarayoni ta'sirida, kollektiv va tarbiyachilarning g'oyaviy raxbarligi ostida amalga oshadi.

O'smirlik yoshi xatti-harakatlarida suyana boshlaydigan dunyoqarashlarning, ma'naviy e'tiqod, prinsip qoida, idealarining, baxolash mulohazalari sistemasining tarkib topishi davridir. Agar kichik maktab yoshidalik davrida u yoki kattalarning, ya'ni o'qituvchilar va ota-onalarning bevosita ko'rsatmalari bilan, yoki o'zining tasodifiy va impulsiv istaklari ta'siri bilan harakat qilgan bo'lsa, endilikda uning uchun o'z xatti-harakatlarining prinsipi, o'zining qarashlari va e'tiqodlari asosiy ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi va tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, xuddi ana shu yoshda axloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo'yiladi.

Yuqori sinf o'quvchilari turli narsalarni mutlaqo aniq differensiallaydi. Agar tanaffus paytida o'ynab turib stulni sindirib qo'ysa va uni ustaxonada tuzatish lozim bo'lsa, bu jazo emas. Agar o'zining iflos qilgan joyini supurishga majbur qilinsa bu ham jazo emas. Bularning mantiqi o'smir uchun ravshan: bu jazolash emas, balki xatti-harakatlarining natijalarini tuzatishdir.

Psixologlar o'z oldilariga o'smirlar ma'naviy ongining mazmunini, ularning axloqiy tushunchalari va tasavvurlarini o'rganish vazifasini qo'yganlar. Tadqiqotlar umuman o'smirlar ma'naviy ongining yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi. O'smirlarning ko'pchilik qismi yoshlarga munosib ma'naviy tushunchalarni to'g'ri tushunadilar. Bir necha misollar keltiramiz. Qat'iylik- "bu, odam eng qiyin ishlarni amalga oshirishga kirishganda, uning xech qanday muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqmay ishni oxirigacha olib borishida ko'rinadigan xususiyatdir" (12yosh) "Qat'iylik yaxshi odamda ham rivojlanadi, ammo yomon odamda yomon ishlarga, yaxshi odamda esa yaxshi ishlarga xizmat qiladi." (12yosh) O'smirlik yoshining oxiriga kelib chuqur anglashlik darajasi, albatta, sezilarli o'sadi. "Kamtarlik-bu, o'ziga oqilona baho bera bilish, o'z-o'ziga va xatti-xarakatlariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishdir." [16;21]

E'tiqod va dunyoqarashning tarkib topishi bilan chambarchas bog'langan xolda o'smirlarning axloqiy ideallari ham yuzaga kela boshlaydi. Bu ideallar yetarli darajada chuqur, mazmundor, faoldir va bu ideallar o'ziga xos axloqiy etalon bo'lib xizmat qiladi, o'smir esa o'z xatti-xarakatlarini ana shu etalon bilan tenglashtiradi. Kichik yoshdagi o'smirlar uchun odatda qandaydir konkret bir kishi ideal bo'ladi. Bu odam o'smir yuksak darajada baxolaydigan sifatlarni o'zida gavdalantirgan bo'ladi.

Ko'pgina bunday ideal ota-onalar, o'qituvchilar yoki yaxshi ko'radigan kitobidagi va kinofilmidagi qaxramonlardir. Katta yoshdagi o'smirlarda ideal sifatida majmui bo'lmish umumlashgan obrazlar ideallar sifatida yuzaga chiqa boshlaydi. O'smirlar o'zlarining kelajakdagi xayot va faolliklarini o'z orzularida loyihalashtiradilar. Katta ishlar va qaxramonona kasb kishilari fan va mehnat kishilari o'smirlarimizning aql-xushini o'rab olgandir. Bu mamlakatimiz xayotidagi keng va chuqur ijtimoiy xodisalar bilan hozirgi vaqtdagi xaqiqiy qaxramonona ishlar bilan bog'liqdir. So'nggi yillarda o'smirlarning qaxramonlik xaqidagi orzu va umidlari tobora ko'proq o'z xayotini paslik fazoni zabt etishga, raketa texnikasiga, quvvatning yangi turlaridan foydalanishga, ximiya, fizika, biologiya va meditsina soxalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish bilan bog'lanmoqda. O'smirlarimizning orzulari ularning mamlakatimiz xayotida, ijtimoiy foydali faoliyatda qatnashishi uchun bo'lgan ishtilishlardan darak bermoqda. O'zlarining kelajak xayotlarini, o'zlarining mamlakatimiz xayotida tutgan o'rinlarini ular boshqa sovet kishilarining hayotlari bilan maxkam bog'lamoqdalar [18;224].

Yettinchi sinf o'quvchisi K. Veraning yozgan she'rida internatsionalizm, do'stlik, xarakat

qilish istagi, ozodlik uchun kurash olib borayotgan xalqlarga aktiv yordam berish hissi uchun kurash olib borayotgan xalqlarga aktiv yordam berish hissi yorqin namayon bo'lgan [16;22].

Mexribonlik bu, zaif va irodasi bo'sh odamlarda xususiyatidir, haqiqiy (jasur) odam dangal, beparvo, sabotli, qo'polroq va keskin bo'lishi kerak. O'smir o'g'il bolalar jasorat ko'rsatishiga, olifalikka moyil bo'ladilar. Bu narsa ba'zan xatto jiddiy ravishda intizomni buzishga olib keladi. Ular: «Jasurlik» yoki dadillik bu, hayotni xavf ostida qoldirib harakat qilish, nima uchun bo'lishidan qat'iy nazar, bari-bir, odamning eng xavfli ishga kirishidan iboratdir. Bunda eng muhimi ko'rmaslik. Xech kimga keragi yo'q mardlikdir, lekin xar xolda mardlik. Oqilona qo'rqqoqlikdan axmoqona mardlik yaxshidir.

Maktablardan birida o'smir bolalar shunday bir mashqni o'ylab chiqarishdi: to'rtinchi qavatdagi balkondan uchinchi qavatdagi balkonga sakrab tushishardi. qo'lda osilib turib, u yoki bu yoqqa tebranib, so'ng sakrashadi. Nima sababdan ular bu ishni qilganlarini bilish uchun direktor bu bolalarni o'z kabinetiga chaqirdi. Dastavval bolalar urishib berishadi deb indamay turishdi, lekin bir ozdan so'ng dadillanib, bu qilgan ishlari «jasurlik attestati uchun imtixon» ekanini gapira boshlaydilar: Kim bu ishni qilgan bo'lsa, u jassur, kim bu ishni qilmagan bo'lsa, u ko'rqqoq. Juda ko'p noxush minutilarni boshdan kechirgan direktor bolalarga bunday deydi: “Mana bunday desak, sizlarga qanday tuyularkin, kimki bu ishni qilgan bo'lsa, u axmoq, agarda kim qilmagan bo'lsa, u aqlli.” Bolalar bunga shunday javob qaytarishdi: “Nima ham der edik, meni qo'rqqoq degandan ko'ra, yaxshisi axmoq deb xisoblab qo'ya qoling.”

O'smirlik yoshida, ya'ni odam shaxs sifatida tarkib topayotgan bir paytda o'zini kattalardek his qilishi, kattalarning irodalarga qarshi tura olishini anglash muhimdir. Katta yoshli o'smirlardan biri o'qituvchining oldida kechirim so'rashni talab qilayotgan direktor bilan bo'lgan suxbatda mag'rur ravishda bunday deydi: “Men prinsipiiall odamman, men hayotimda xech qachon va xech kimning oldida kechirim so'ragan odammasman!”. Bularning hammasi o'ziga xos axloqiy dunyoqarashdan iboratdir! Psixologlar o'smirlarning xarakteristikallari bilan tanishganlaridan so'ng (o'smirlarning muloxazalari yuqorida keltirilgan edi) shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'smirlarning xarakteristikallari xatti-harakatlari bilan to'la mos keladi, ya'ni ularning axloqiy ongi xatti-harakatlari darajasiga «o'sib chiqib», xatti-harakatlarni belgilaydi. So'nggi paytlarda L.N. Desev o'smirlarning axloqiy tushunchalari mazmunini tadqiqot qilib (A.G. Kovalov raxbarligi ostida), ularning axloqiy kategoriyalarini tushunishlari ko'pincha yuzaki, formal xarakterga ega ekanligini ko'rsatib berdi.

O'zini anglash extiyoji xayot extiyojlaridan va amaliy faoliyatlaridan kelib chiqadi. O'zini anglash kattalarning, kollektivning o'sib borayotgan extiyojlari bilan belgilanadi. Ijtimoiy xayot va kollektivga bo'lgan qiziqishning rivojlanishi munosabati bilan o'smirlarda o'z imkoniyatlariga baxo berish, kollektivda o'z o'rnini aniqlash, xatti-harakatlari va o'z shaxsining qanday xususiyatlari uning oldiga qo'yiladigan talablarga yuksak darajada javob berishga yordam berishi yoki xalaqit berishini anglash extiyoji paydo bo'ladi. o'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi ularning o'z xatti-xarakatlarini anglashlaridan boshlanadi. Dastlabki paytlarda o'smirlarning o'zini anglashi asosida u haqida boshqa odamlarning, kattalarning (o'qituvchilar, ota-onalarning), kollektivning va o'rtoqlarining mulohazalari yotadi. Kichik yoshdagi o'smir o'ziga go'yo atrofdagi odamlarning ko'zi bilan qaraydi. Yosh ulg'ayishi bilan o'z shaxsini mustaqil taxlil qilish va baxolash tendensiyasi boshlanadi. Nihoyat shaxsning ko'p tomonlama munosabatlarini ifodalovchi murakkab sintetik sifatlar (burch hissi, qadr-qiyamat va vijdon hissi, prinsipiiallik) anglanadi. Shaxsni tobora kengayib boradigan sifatlarini anglashdagi bunday izchillik ma'lum va uni osongina tushuntib berish mumkin.

Xulosa

Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shaxsning erta o'spirinlikdagi eng muhim hislatlaridan biri o'z-o'zini hurmatlash, o'z-o'ziga baho berish hamda o'zini shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O'spirinlar o'zlarida shaxsning muayyan kompleks

sifatlarini hosil qilishga intiladilar. O'z-o'zini tarbiyalash masalalarida bir butun ma'naviy psixologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideal va namunaning mavjudligi kata ahamiyatga ega. Masalan: o'g'il bolalar kinofilmidagi obrazlarni o'zlariga ideal deb bilsalar; qizlarimiz mehnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki mavqei belgilashning murakkab muammolarini o'spirinning o'zi hal qila olmaydi. Bu masalani o'spirinning ota-onasi, o'z tengqurlari, o'qituvchilar ishtirokida ularning qo'llab-quvvatlashida inobatga olganholda hal qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatning kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., 2017. – 104 b.
2. Грецев А.Г. Эмоциональные отношения со сверстниками психологические проблемы подростков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. Санкт-Петербург, 2003. – 22 с.
3. Василева Е. Н. Особенности формирования положительного эмоционального отношения у детей старшего дошкольного возраста с задержкой психического развития к близким взрослым и сверстникам. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. Нижний Новгород, 1994. – 16 с.
4. Богословская Н.А., Носуленко В.Н., Старикова И.В. О некоторых вопросах изучения эмоционального отношения человека к акустическим событиям // Экспериментальная психология. 2011. Том 4. № 2. С. 62–78.
5. Wygotski L. S. Nowe kierunki psychologii. - Lwów: Księgarnia Gubrynowicz (Al. Krawczyński), 1936
6. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – Москва: Питер, 2008. - 398 с.
7. Лисина М. И. Формирование личности ребенка в общении. - Санкт-Петербург: Питер, 2009. - 318 с.
8. Кон И.С. Психология старшеклассника. – М.: Просвещение, 1980.
9. Мудрик А.В. Время поисков и решений, или старшеклассникам о них самих. – М.: Просвещение, 1990. 189 с.
10. Фридман Л.М., Кулагина И.Ю. – 2-е издание, дополненное и переработанное. – Москва: Совершенство, 1998. – 432 с. – (Практическая психология в образовании).
11. Левитов Н. Д. Психологическая лаборатория и школьная практика: Педагогич. работа Гамбургск. психологич. Лаборатории.- Москва: Гос. изд-во, 1924. - 88, [1] с.
12. Столяренко Л.Д.С.Педагогическая психология. Серия «Учебники и учебные пособия». — 2-е изд., перераб, и доп. — Ростов н/Д: «Феникс», 2003.
13. Bekmirov T.R. Shaxsning emotsional irodaviy holatlari, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. – 64 b.
14. Nishonova Z.T. va boshqalar. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya, darslik - Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. -600 b.
15. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya, darslik. -T.: “Ijod-Press”, 2019. - 512 b.
16. Radjabova M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya, ma'ruzalar matni. – Termiz: 2008. – 47 b.
17. Shamshetova A.K., Melibayeva R.N., Usmanova X.E., Xaydarov I.O. Umumiy psixologiya, O'quv qo'llanma. Toshkent, 2018.
18. Askarova, N. A. (2022). Pedagogical and psychological features of education in islam. Academic research in educational sciences, 223-229.